

ma'lumot olish mumkin. O'zbek va ingliz maqollarida gender belgilarining ifodalaniishi, asosan, erkak va ayolga xos o'ziga xos ijtimoiy rollarning ifodasiidir. Bu maqollar o'zining o'gitli, xalqona va axloqiy xarakteriga ko'ra, har ikki xalqning madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashlarini aks ettiradi [2].

Anonim xarakterga ega bo'lgan maqollar mazmunida, aksariyat holda, insonlarning gender rollari va jamiyatdagi o'rni bo'rtma aks etib turadi. Masalan, *Qizning ko'ngli xashak, yigit ko'ngli ipak* maqoli mazmuniga diqqat qaratsak. Ushbu maqolda o'zbek jamiyatiga xos bo'lgan azaliy gender tasavvur aks etgan bo'lib, ayollarning qalbi bilan hisoblashmaslik, ularning qalbini, hissiyotlarini e'tibordan chetda qoldirish, shu bilan barobarida qarshi jins vakili hissiyotlariga keng o'rinn ajratish, unga o'ta muhim omil sifatida qarash aks etib turibdiki, bu yillar davomida shakllangan urf-odatlar mahsuli sifatida maqolda qoliplashgan [3]. O'zbek maqollarida ifodalangan ayol leksemasi quyidagi obrazlarni ifodalashga xizmat qilgan:

1. “Bir ayolning makri qirq tuyaga yukdir” maqoli ayollarning aqliy va psixologik qobiliyatlari, ijtimoiy munosabatlardagi mahoratini va o'z maqsadlariga erishishda qo'llaydigan strategiyalarni ifodalaydi. Ayol obrazi bu o'rinda salbiy konnotatsiya kasb etib, makkorlik va hiylanayrangni anglatuvchi ma'noda gender stereotiplarini aks ettiradi. Shu bilan birga ayollarga xos omilkorlik, o'tkir aqliy qobiliyat, ayyorlik kabi jihatlar ham bo'y ko'rsatganki, bu ayolday nozik xilqatning mushkul vaziyatlarda kuch-qudrat orqali emas, aqliy tafakkur orqali kurashishini ham anglatadi. Birlik, asosan, erkak nutqida faol qo'llanib, ayollarga nisbatan ishonchszlik ma'nosini ifodalaydi.

2. “Uch ayol – to'rt g'iybat” maqolida ayol so'zi salbiy stereotipik xususiyatlar bilan bog'lanadi. Maqolayollar o'rtasidagi munosabatlarni g'iybat va mish-mishlarga moyil deb tasvirlaydi. Ushbu maqolda o'zbek mintalitetiga xos bo'lgan ijtimoiy bosim sezilib turadi. Bilamizki, o'zbek jamiyatida ijtimoiyashuv juda kuchli, har bir o'zbek jamiyat va atrofdagi kishilar oldida o'zini javobgar deb biladi, ular bilan hisoblashishga o'zini mas'ul deb tushunadi. Chunki u yoshligidan “Odamlar nima deydi?”, “Qo'ni-qo'shni oldida uyatga qolamiz” kabi jumlalar ta'sirida ulg'aygan, shu sababli butun bir jamiyatda kishilarni muhokama

qilish kuchli. Tabiatan so'zamol va sergap bo'lgan ayollar orasida insonlarni muhokama qilish, ularning hayotiga qizish va o'zaro axborot almashish juda kuchli bo'lgani sabab yuqoridagi kabi maqollar shakllangan. Bu kabi qo'llanishlar ayol so'zining semantikasini cheklaydi va gender stereotiplarini voqelantiradi.

3. “Ayolning aqli uning go'zalligida, erkakning go'zalligi uning aqlida” maqolida ayol so'zi erkaklardan farqli o'laroq, asosan tashqi ko'rinish bilan bog'liq holda keltiriladi. Bu maqoldagi *ayol* so'zining qo'llanilishi jinslararo farqlarni keskin ajratib, ayollarning aql-idrokini erkaklarnikidan pastroq qo'yadi. Ayol so'zining bunday semantik chegaralanishi gender tengsizlikni yuzaga chiqargan holda ayollarning intellektual salohiyatini to'liq e'tirof etishga to'sqinlik qiladi.

4. “Ayolning og'zidan chiqadigan gap, ikki kun yashar”. – Bu maqolda ayolning so'zları va fikrlari ko'proq an'anaviy ijtimoiy normaga muvofiq ravishda qabul qilinishi ta'kidlanadi. Bilamizki, o'zbek oilalarida asosiy qarorni erkaklar qabul qiladi, istalgan muammoning oxirgi yechimi erkak so'zi bilan yakunlanadi. Shu jihatdan bu o'rinda ayollarning oiladagi o'rni va fikriniga munosabat aks etmoqda [4].

O'zbek maqollarida erkaklar ko'pincha boshqaruvchi, mehnatkash va yuqori ijtimoiy mavqega ega shaxs sifatida tasvirlanadi. Ayollar esa oilaviy va hissiy mas'uliyatga ega, asosan, oilaviy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi shaxslar sifatida ko'rsatiladi.

Ingliz tilidagi maqollar ham erkak va ayolga xos ijtimoiy rollarni aks ettiradi, ammo ularning gender stereotiplari o'zbek maqollariga nisbatan ba'zan yanada erkinroq va zamonaviyроq ko'rinishda bo'lishi mumkin. O'zbek tilida esa ayolning ijtimoiy maqomi asosan “uy bekasi”, “ona”, “xotin”, “qiz”, “kelin” timsollarida namoyon bo'ladi. Ammo “rahbar ayol”, “fan arbobi” kabi maqomlarining mavjud emasligi, ayollarning qadr-qimmatini tushirmaydi, chunki o'zbek erkaklari ayollarni zaif jins sifatida asrab-avaylab, e'zozlab yurishni xohlaydilar. Ularga, avvalo, saranjom-sarishta uy bekasi, maslahatchi turmush o'rtog'i, mehribon ona kerak: “Xotining yaxshi bo'lsa, bu dunyoning charog'i” kabi maqollar ana shu qarashlar mahsuli deyish mumkin.

Ingliz tilidagi jins belgili maqollarni tanlashda *man* leksemasidagi “erkak” va “odam”

ma'nolarini farqlash qiyinlashdi. *Man* komponentli ko'plab maqollar, umuman, shaxsni tavsiflaydi: *Every man has a fool in his sleeve* (so'zma-so'z. Har bir odamning yengida axmog'i bor) – Har to'kisda bir ayb; *A man can do no more he can* (so'zma-so'z. Odam qo'lidan kelganidan ortiq narsa qila olmaydi.) – Boshdan yuqoriga sakrab bo'lmaydi; *All men are mortal* – O'lim muqarrardir; *A man can die but once.* – Bir boshga bir o'lim. Oxirgi ikki ingliz misolining muqobil variant sifatida o'zbek tilidagi "bandalik ekan" diniy xarakterli iborani ham olish mumkin. Ibora "hamma o'ladi, u Xudoning bandasiga xos, joyi jannatda bo'lsin" kabi mazmunni ifodalaydi [6].

Ingliz maqollarida ayollar ko'pincha oilaning ichki hayotini saqlovchi, mehribon va saxovatli shaxslar sifatida tasvirlanadi [7]. Misol uchun:

1. **"Behind every successful man is a woman".** – Ushbu maqolda ayolning erkak muvaffaqiyatida beqiyos o'rni va qo'llab-quvvatlovchi sifatidagi roli ta'kidlanadi. Bu o'rinda ayol nafaqat oilani qo'riqlovchi, oila asosi sifatida, balki oila boshlig'i sanalgan erkak muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida ko'rsatilmoqda. Bu maqol orqali ingliz madaniyatida, o'zbek jamiyatidan farqli o'laroq, ayollarga xos omilkorlik, aql-zakovatning tan olinishini ko'rish mumkin.

2. **"A woman's place is in the home".**

– Bu maqolda esa ayolning an'anaviy gender roli ko'rsatilgan, ya'ni ayolning asosiy o'rni oilada va u oilaning farovonligi uchun mas'uldir.

Ingliz maqollarida erkaklar ko'pincha ijtimoiy va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishuvchi shaxslar sifatida tasvirlanadi, ayollar esa oilaviy hayot va muhitni saqlovchi, qo'llab-quvvatlovchi rolni bajaradi va bu jihat bilan o'zbek maqollaridagi ayol roliga o'xshashdir [8].

XULOSA (CONCLUSION). O'zbek va ingliz maqollarida gender belgilarining ifodalanishida ba'zi o'xshashliklar va farqlar mavjud. Har ikkala madaniyatda ham ayollar oilada

mehribon va asosan ichki ishlarni boshqaruvchi, oilani asrab-avaylovchi, oila farovonligiga mas'ul shaxslar sifatida tasvirlanadi. Biroq, ingliz maqollarida ba'zan ayolning yuksalishi yoki erkakni qo'llab-quvvatlashi haqida ham o'ziga xos g'oyalar ifodalanadi, bu esa ingliz jamiyatining zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarga moslashganligini ko'rsatadi. O'zbek maqollarida esa an'anaviy gender rollari va stereotiplari kuchliroq ifodalangan. Ayollarning ko'proq oilaviy mas'uliyatlariga va hissiy holatlariga e'tibor qaratilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nasrullayeva N.Z. Ingliz va o'zbek tillarida olamning frazeologik manzarasida gender konseptlarining shakllanishi: Filologiya fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O'MU, 2018. – 71 b.;
2. Насруллаева Н.З. Национально-культурная специфика гендерных стереотипов в английской и узбекской фразеологических системах // Xorijiy filologiya, № 4. – Т., 2017. С.34-38.
3. Maqollar va ularning ma'nosи haqida umumiy qo'llanma. – Toshkent, 2019.
4. Raynor, T. Gender in Proverbial Wisdom: A Cross-Cultural Study. Oxford University Press, 2015.
5. Allport, G. W. The Nature of Prejudice. Addison-Wesley, 1954.
6. Mukarramov M. Ko'chimlarning o'zaro munosabati // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1976. – №5. – B. 50–56.
7. Muhammedova S. Valentlik nazariyasining Yevropa va o'zbek tilshunosligidagi rivoji. – Toshkent: Universitet, 2000. – 12 b.
8. Qurbonova M. Genderolinguistik tadqiq yangi paradigma sifatida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2014. – №2. – B. 43–47.

**“FAHM- FAROSAT, AQL” KONSEPTI BILAN
BOG’LIQ LEKSEMALARING LINGVOMADANIY
TAHLILI**

*Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
Tillar va maktabgacha ta’lim kaferdrasi
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

**ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ЛЕКСЕМ,
СВЯЗАННЫХ С КОНЦЕПЦИЕЙ РАЗУМА**

*Абдужаббарова Феруза Абдуназаровна
Ташкентский институт экономики и педагогики
Кафедра языков и дошкольного образования
кандидат филологических наук, доцент*

**LINGUISTIC AND CULTURAL ANALYSIS OF
LEXEMES RELATED TO THE CONCEPT OF
MIND**

*Abduzhabbarova Feruza Abdunazarovna
Tashkent Institute of Economics and Pedagogy
Department of Languages and Preschool Education
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor*

Annotatsiya: Ushbu maqolada til ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birlgilikda madaniyat bilan ham uzbiv bog’liqligi, bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaromadaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha-lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi hamda tarixiy obida sanalmish “Qutadg‘u bilig” asari pandnomma sifatida o‘z shonshuhratiga ega, bu holat o‘z o‘rnida millatimizning tarixiy bosqichida aqli, fahm-farosatlilik milliy o‘zligimiz hamda madaniyatimizga poydevor vazifasini o‘taganligi haqida so‘z boradi. Shu bilan birga asar tilida keltirilgan aql, fahm-farosat konsepti bilan bog’liq leksemalar tahliliga tortildi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, lingvomadaniyatshunoslik, millat, milliy an'analar, urf-odatlar, konsept, adektivlik, ma’nodosh sifatlar, leksema, sema.

Аннотация: Эта статья посвящена тому, национальный язык всегда связан с культурой, экономические, политические, культурные и научные связи между людьми, народами, странами, международные культурные коммуникативные процессы имеют особое специфическое направление и предмет в области лингвистики и культурологии, такие как языковое взаимодействие и языковая культура. «Кутадгу билиг», являющийся историческим памятником, имеет свою славу как пантомим, в котором говорится о том, что на историческом этапе нашей нации мудрость, проницательность послужили основой для нашей национальной идентичности и культуры. При этом к анализу были привлечены лексемы, относящиеся к понятию интеллекта, простодушия, представленные в языке произведения.



feruzaabdujabbarova@yandex.com

<https://orcid.org/0000-0002-9348-8484>

Ключевые слова: лингвокультурология, нация, национальные традиции, обычаи, понятие, адекватность, значимые прилагательные, лексема, сема.

Annotation: This article is devoted to the fact that the national language is always connected with culture, economic, political, and scientific ties between people, peoples, countries, and international cultural communication. Linguistic interaction and linguistic culture are special directions and subjects in the field of linguistics and cultural studies. The historical monument "Kutadgu Biling" has its fame as a scholar who says that at the historical stage of our nation, wisdom and insight served as the basis for our national identity and culture. At the same time, lexemes related to the concept of intelligence and simplicity were involved in the analysis of the work.

Key words: linguoculturology, nation, national traditions, customs, concept, significance, significant adjectives, lexeme, sememe.

KIRISH

Har bir xalqning tarixi o‘z milliy madaniyatining ko‘zgusi sanaladi. Milliy madaniyat o‘z ichiga urf-odatlarni, qadrli bo‘lgan an’analar, xalqning dunyoqarashiga, e’tiqodiga oid milliy qarashlar, aytimlar, maqol va matallarni oladi.

Ma’lumki, jamiyatdagi har bir inson o‘z holicha madaniyatni tashuvchisi, ma’lum bir ma’noda esa til, madaniyat, tarix va badiiy adabiyotga ta’sirini o‘tkaza oluvchidir.

Har bir til jamiyatga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisa ekanligi tan olingan, tilning aloqa vositasi vazifasiga madaniyat, milliy dunyoqarash, tilning milliy ko‘rinishini ham yuklatilgan.

Bugungu kunda o‘zbek tili tarixiga oid manbalar tili ayni ajdodlarimiz ijod namunalarida til madaniyatini o‘rganish, millatning shakllanishidagi eng muhim vosita bo‘lganligini tadqiq etish masalasi maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liq ekanligi, madaniyatning tildagi in’ikosi, tilda madaniyatning ifodasi, uning aks etishi kabi masalaning tilshunoslikda o‘rganishi yaqin yillardan boshlandi. Ularning metodologik asosi sifatida V.M.Shaklein, V.V.Vorobyov, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlarini ko‘rsatish o‘rinlidir. O‘zbek tilshunosligida ham lingvokulturologik soha jadallik bilan rivojlanib bormoqda, bu sohaning ilmi asoslanishi borasidagi ilk izlanishlarga “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish” (A.Nurmonov), “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab” (N.Mahmudov).

Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar” (N.Sayidrahimova) hamda D.Xudoyberganovaning “Matnning atropotsentrik tadqiqi” nomli dissertatsiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvokulturologiya yo‘nalishining fan sifatida rivojlanishi, fanining mazmun-mohiyati, predmeti va tadqiqot obyekti masalalari o‘rganilgan.

Ana shu g‘oyalar asosida ming yillar davomida chet elda yangi fan – lingvokulturologiya vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi.

TAHLIL VA NATIJALAR. “Qutadg‘u bilig” asari pandnomma sifatida o‘z shon- shuhratiga ega, bu holat o‘z o‘rnida millatimizning tarixiy bosqichida aqli, fahm-farosatilik milliy o‘zligimiz hamda madaniyatimizga poydevor vazifasini o‘taydi.

Turkiy til obidalaridan biri bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” asari asosida shaxsning fe’l-atvori, xarakterini ko‘rsatuvchi, fahm-farosat konsepti bilan bog‘liq leksemalarning lingvikulturologik xususiyatlari tahlilga tortildi.

“Fahm-farosatli, aqli” konseptiga doir leksemalar pandnomada bir nechta ma’nodosh sifatlar bilan anglashilgan. “Aql, farosat” semali egi leksemasidan

- lug qo‘sishchasi bilan hosil bo‘lgan **eglyg** yasamasi qayd etilgan semada faqat Yusuf Xos Hojib ijodida qayd etilgan:

Вазирлыққа артуқ бутүн эр кәрәк
Оқығлы битигли кәд өглүг кәрәк
“Vazirlilikka juda ham yetuk kishi kerak,

O‘qimishli, yozuvni biluvchi, juda aqli (kishi) kerak” (2199).

Farosat so‘zining yana bir “zakovat” ma’noli **уқуши** (< уқ = “anglamoq, tushunmoq, uqmoq)

mavhum otiga - **лүг** affiksini qo'shishdan hosil qilingan **уқишилуг** "fahmli" semasi bilan asarda eng ko'p qo'llangan so'zlardan hisoblanadi [1. T., 2011.-162 б.]:

Муны чын билигли укушлуғ болур

"Buni haq deb biluvchilar zakovatli bo'ladi" (3695).

Ushbu leksemani "Devon"da kuzatilishi: **уқишилуг киши** (I, 93), uning ilk eski turkiy tilda shakllanganini bildiradi. Bu sifat leksema Qutbning "Xusrav va Shirin" (XIII, 5 a 4) asaridan o'zga XIV asr Xorazm manbalari tilida qayd etilmaydi. "Bilmoq, fahmlamoq, egallamoq" ma'nosini anglatuvchi **бил** = fe'li asosida shakllangan **билгэ** derivati "aqli, dono, bilimdon" semasida ilk bor O'rxun-Enasoy bitiglarida ifodasini topgan (DTS, 99). Mahmud Koshg'ariy mazkur leksemaning "oqil, aqli" (I, 403) hamda "olim" (I, 403) ma'nolari borligini qayd etgan.[1.T.2011.B-60.] Yusuf Xos Hojib asari tilida leksema, asosan, o'zining dastlabki semasida ishlatilgan:

Нәкү тэр эшит эмди билгэ тэтиг

"Endi eshitgin, tetik, dono nima deydi" (740).

Ijobiy baho ottenkasiga ega ushbu sifat leksema "bilag'on, donishmand, aqli" ma'nosini anglatuvchi **бөгү** adyekktivi bilan sintagmatik munosabatga kirishib, juft so'z tarzida "bilag'on, dono" ma'nosini anglatgan [1.T.2011.]:

Эшитгил нәкү тэр бөгү билгэ бэг

"Bilag'on dono beg nima deydi, eshitgin" (327).

"Devon" tilida bilgэ **бөгү** shaklli juft so'zi "bilag'on, aqli, donishmand"ni bildirganligi urg'ulangan (III, 248). XIV asr obidalarida **билгэ бөгү** shaklli juft so'zi "bilag'on, aqli, donishmand"ni bildirganligi ta'kidlangan (III, 248). XIV asr obidalarida **билгэ**, acosan, "hakim, hikmatshunos" ma'nosida qo'llanishda bo'lган (SUYA, I, 242; Qisasi Rabg'uziy, 181 v 1). **Бөгү** sifati keyingi davr manbalarida uchramaydi.

Ta'kidlash joizki, "ong, tafakkur, aql" ma'nosini bildiruvchi 'aql o'zlashmasi XII asrdan eski turkiy til so'z tarkibidan o'rin olgan. XIV asr manbalari tilida ushbu arabcha so'z turkiycha – **лыг** qo'shimchasi ishtirokida **'акыллыг** sifatini yasashda qatnashgan (Qisasi Rabg'uziy, 231 r 16; XIII 33 б 11) va boshqa arabcha **'акыл** (Қисаси Рабғузий, 10 r 18; Г, 51 б 11; XIII, 23 б 14; НФ 75 а 1) o'zlashmasi bilan ma'nodoshlik qatorini shakllantirgan. **Уқишилуг** leksemasining keyingi

davr obidalarida onda-sonda ishlatilishi, **бөгү** ning esa iste'moldan chiqib ketishini **'акыллыг** va **'акыл** leksemalarining faollashuvi natijasi deb qaramoq lozim. O'rganilayotgan ma'noning dostonda ifodalaniши borasidagi mulohazani yuqorida zikr etilgan **уқиши** ot leksemaning Yusuf Xos Hojib tomondan muayyan o'rinda "aqli, zakovatli" ma'nosini anglash uchun ishlata olganini qaydash bilan yakunlashni ma'qul topdik [1.T. 2011. B-103]:

Ham pandnomma, ham "Devon"da yinchkə leksemasi "ingichka, yupqa" ma'nosini anglatgan (DTS, 261). Yusuf Xos Hojib ushbu so'zni "andishali, rejali" semasini bildiruvchi saqylyq leksemasi bilan valentlik munosabatiga kiritadi va "farosatli, aqli" ko'chma ma'noni ifodalashga xizmat qildiradi:

Эй ийинчкә сақынуқ тиләгли ынал

"Ey, farosatli, andishali (xotin) istovchi jo'ra" (4393).

"Bosh miya" ma'nosini pandnomada **мәңә**, "Devon"da **мәңи** (miñi (II, 346) shaklli ot leksema bilan ifodalangan. Yusuf Xos Hojib ushbu so'zni "to'la, butun" semali **толу** sifati bilan bitshtiradi va "miyasi to'la, o'ta aqli" ma'nosini ifodalaydi:

Билиглиг укушлуғ мәңәси

толу

"Bilimli, zakovatli, miyasi to'la (kishi)" (5975).

Hozirgi o'zbek tilidagi **miyasi to'la** birikmali sifatining ibtidosi aynan Yusuf Xos Hojibning so'z yasash mahorati bilan bevosita bog'liqligini qayd etish ayni muddaodir.

Tahlil qilinayotgan ma'nuning qadimgi turkiy til va eski turkiy til manbalarida "bilim, aql, fahm" ma'nolarida kuzatilishi, **билиг** yasamasining poemada "aqli, dono" semasida ishlatilganini e'tirof etadi [1.T. 2011. B.93]:

Нә эзгү нән - ул билигләр сөзи

"Donolar so'zi qanday ezgu narsa"

(3989).

"Aqli, ziyrak, es-hushli" ma'nosini ifodalashda doston muallifi "yurakli, qalbli" hamda "jonli, qaynoq" ma'nlari bilan qadimgi turkiy tilda (DTS, 316) qo'llangan **көңүллүг** derivatiga murojaat etadi [1.T. 2011. B.105]:

Көңүллүг кәрә ҳам кәз өглүг кәрәк

"Es- hushli hamda juda aqli bo'lishi kerak" (2431).

Mazkur derivat kishi so‘zi bilan birikib, **көңүллүг киши** birikmali sifatini yuzaga chiqargan va “es - hushli, ziyrak kishi”ni ifodalagan:

Конүллүг киши сөз унутмас болур
“Es-hushli kishi so‘zni unutmaydigan bo‘ladi” (2432).

So‘nggi ma’no “Devon”da **көңүллүг** эр birikmasi bilan anglashilgan (III,377). “Qisasi Rabg‘uziy” tilida **көңүлли** (19 г 22), **көңүлү** (6 г 4), **көңүллиг** (6 г 5) fonetik variantlari “yurakli, ko‘ngilli” ma’nosida ishlatilgan.

Tahlil etish jarayonida inson ongida voqelanadigan “fahm-farosatli, aqlly” konseptiga oid leksemalar paradigmasida aqlning “yo‘q”ligi, me’yordan kamligini bildiruvchi leksik birliklar ham mavjudligi, ular, asosan, biz ko‘rib chiqqan so‘zlarga antonimlik munosabatini tashkil qiladi, tahlil qilingan leksemalar bilan zid ma’noliligi bilan xarakterlanishi aniqlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “fahm-farosatli, aqlly” konseptiga oid leksemalar milliy madaniyatning darajasini, ma’naviy yetuklikka intilishda asosiy omillardan biri ekanligini hamda miqdori “farosatsiz, befahm, aqlsiz” semasini anglatuvchi ad’yeaktivlardan deyarli ikki baravar ortiqligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдужаббара Ф. “Кутадғу билиг”даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика. Филол. фан. ном... дисс.–Т., 2011.–162 б.
2. Абдуллаев. Ҳ. “Кутадғу билиг”даги халқ мақолларининг бадий-эстетик

вазифалари // “Кутадғу билиг” – буюк маънавий мерос. Илмий конференция материаллари.–Т., 2010.

3. Арзиев Р. Лексико-стилистические особенности языка поэмы «Кутадгу билиг» Юсуфа Хос Хаджиба. Автореф. дисс. канд. филол. наук.–Алматы, 1991.
4. Asadova S. “Qutadg‘u bilig”ning badiiy xususiyatlarining o‘rganilish tadriji. Qarshi, 2014.– 56 b.
5. Дадабоев Ҳ. “Кутадғу билиг” матнида бадий актуаллашган лексик воситалар хусусида// Стилистика ва pragmatika. Профессор С. Каримов таваллудининг 60-йиллигига бағишиланган илмий-назарий конференция материаллари.– Самарқанд. 2010. 4-5 июнь. 48-52 –бетлар.
6. Дадабоев Ҳ.Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи.– Тошкент:Фан, 2007.
7. Nurmonov A. Ovrupoda umumiyl va qiyosiytilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A.Tanlangan asarlar.2- jildlik.- Toshkent:Akademnashr, 2012.- В.23-40.3
8. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания/ Критика и семиотика. – М.,1987.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати (Туркий сўзлар). - Ташкент: Университет, 2000. -600 б.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лугатининг туркий қатлами. -Ташкент: Университет, 2001. -351 б.

